



## CREATIVE ABILITIES AND CREATIVE DIAGNOSIS AND THE IMPORTANCE OF INSTRUCTION OF STUDENTS FOR INNOVATIVE ACTIVITY

Xodjayeva Dilnavoz Djumoyevna <sup>1</sup>

Tashkent State University (named after Nizami) pedagogical university Shakhrisabz branch, psychology teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4818636>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2021

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2021

Online: 25<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

Creativity, innovation, creativity, creative activity, alternatives, diagnostics

### ABSTRACT

*Innovation means innovation, innovation. Innovation can happen in any field. For example, in science, the achievement of major innovations in one of its areas, the creation of discoveries, research, the discovery of new science and knowledge in science, the creation of a new generation of techniques and technologies, the introduction of new methods in manufacturing, services and more. In economics, it can mean the application of the latest advances in science, engineering, and technology.*

## TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO'NALTIRISHDA IJODIY QOBILIYATLAR HAMDA KREATIVLIK DIAGNOSTIKASI VA AHAMIYATI

Xodjayeva Dilnavoz Djumoyevna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Shaxrisabz filiali psixologiya fani o'qituvchisi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-May 2021

Ma'qullandi: 20-May 2021

Chop etildi: 25-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

Ijodkorlik, yangilik, kreativlik, yaratuvchanlik faoliyati, muqobil variantlar, diagnostika

### ANNOTATSIYA

*Innovatsiya yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsiya har bir sohada bo'lishi mumkin. Masalan, fanda, uning bir yo'nalishida yirik yangiliklarga erishish, kashfiyotlar yaratish, izlanishlarda, ilm sohasida yangi ilm va bilimlarni ochish, texnika va texnologiyalarni yangi avlodini yaratish, ishlab chiqarish sohalarida, xizmat ko'rsatishda yangi usullarni kiritish va boshqalar shular jumlasidandir. Iqtisodiyotda esa fan, texnika, texnologiyalar sohalarida erishilgan eng so'nggi yutuqlarni qo'llashni bildirishi mumkin.*

Adabiyotlardan ma'lumi, innovatsiya jarayoni tuzlimasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi

• Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi

• Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi

• Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi



• Yangilikni yoyish, uni keng tadbqiq etish bosqichi

• Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

• Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Talabalar yangilik kiritishning ikki muhim shalini ham ununtmasligi kerak bo'ladi.

Birinchi shaklga yangilik kiritilishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor maxsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Ijodkorlik jarayonida " yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya yushunchalari ham farqlanadi. Yangilik – bu vositadir: yangi metod =, metodika, texnologiya va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Yoshlar innovatsion faoliyatning quyidagi asosiy vazifalarini bilib olsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- Me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv

- Kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik  
- Dunyoga ijodiy yaratuvchanlik munosabatda bo'lish

- O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Innovatsion faoliyatning eng muhim komponentlaridan biri kreativlikdir. Kreativlik so'zi ingiliz tilidan " creative" "ijodkorlik" degan ma'noni bildiradi.

Ijodkorlik talabalarining ajoyib turkumi-ki, ularning barchasi narsa va biror ishni o'zlari tushunib yetishga intiladilar. Ularda izlanuvchanlik, sinchkovlik, qiziquvchanli

xususiyatlari xos. Ular har bir ishga ehtiros bilan beriladilar. Asosiysi ular chegara bilmaydilar. Har bir ishning yangicha va yana yangicha o'zgartishlar qiladilar, yaratadilar. Ijodkor talabalarining har biri betakror xususiyatga ega. Ko'p hollarda ota – onalar bolalarining yoshlik chog'idanoq tarbiyalashda ish faoliyatiga o'zini qaror toptirish imkoniyati ekanligi, faoliyatdan lazzatlanishga, bu ish harakatni ideal darajada qanday bo'lishi kerak va bu qanday samara berishi, foyda keltirishi mumkinligini anglash nuqatai nazardan munosabatda bo'lishga o'rgatmaydilar. Aksincha, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan qochish, nimalar mimkin emasligini ta'kidlaydilar. Bunda bolaga ish-mehnat faoliyatiga qanday yondashishga o'rgatib boriladi? Shu holatda bola ishga ijodiy yondasha oladimi? Bola tasavvurida ish-mehnat azob-uqubat timsoli sifatida gavdalanmaydimi? Bunda bolaning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmlar hosil qilish qobiliyati, faoliyatidan zavq olish, ijodiy yondashish xislatlari qanday shakllansin.

Talabalarda kreativ tafakurni rivojlantirishda qayta quruvchi, o'zgartiruvchi tafakkurni rivojlantirish muhimdir. Tafakkurni o'zgartiruvchi xususiyati quyidagilardan tarkib topgan:

- Almashtirish. Bunda jarayon, omponent, ko'rinishni nima bilan almashtirilishi o'ylab chiqiladi.

- Kombinatsiyalash. Jarayon, g'oya, yechim, ko'rinish, komponentlarni uyg'unlashtirish, birlashtirish orqali yangicha yondashish yuz beradi.

- Moslashish. Muammoni nima bilan taqqoslash mumkin, u nimaga o'xshaydi va avvalgi qaysi muammo bilan raqobatlasha oladi, uni bajarilish darajasi bilan solishtirib tahlil qilinadi.

- Oshirish, kattalshtirish yoki kichiklashtirish. Bunda nimani qo'shish



mumkin, nimadan voz kechish, nimani bo'rttirish, nimani qisqa yoki uzun qilish, nimani kamaytirish yoki ko'paytirish mumkinligi borasida fikr yuritiladi.

- Yangicha qarash. Muammoni yechimini qanday topish mumkinligi yoki yana qanday boshqacha yondashish mumkinligi, muammoni boshqa muammoni yechishga qanday tadbiriq etish kerakligi borasida fikr yuritiladi.

- Bartaraf etish. Nimadan xalos bo'lish keark, nimadan talofatlarsiz voz kechish mumkinligi bo'yicha qaror qilinadi.

- Qaytat qurish qayta ishlov berish. Muammoni qanday qilib qayta ishlab chiqish mumkin, yangicha qanday qayta qurish mumkin, qanday o'zgartirish, qanday qayta rasmiylashtirish mumkinligi borasida fikr yuritiladi.

Talaba yoshlarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, innovatsion faoliyatga yo'naltirishda kreativ tafakkurni rivojlantirishga e'tiborni qaratish va uning o'ziga xos xususiyatlarini tarkib topishi diagnostikasini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samardorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi PQ-3160-sonli qarori.
2. Karimov.I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat, 2008, 123-b
3. Ziyonet.uz
4. Fayllar.org